

ToshDAU Samarqand filiali "O'simlikshunoslik, meva-sabzavotchilik" kafedrasida professori Bobomirzayev Pirnazar Xursandovichning "Genetika" fanidan "Inbriding va geterozis" nomli ma'ruzasi bo'yicha tayyorlangan ma'ruza tarqatma materialiga

TAQRIZ

"Agrotexnologiya" fakulteti I-bosqich 106-guruh talabalariga professor P.X.Bobomirzayevning "Genetika" fanidan ochiq ma'ruza dars o'tish uchun "Inbriding va geterozis" mavzusi bo'yicha tayyorlangan ma'ruza materialini mavzuning nomi, rejasini, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati, muhokama uchun savollar va pedagogik texnologiya orqali talabalarning bilimini tekshirib ko'rish tartibida tuzilgan. Ma'ruza materiallarida genetik jihatdan bir-biriga yaqin shakllarni duragaylashda yuz beradigan qonuniyatlar, insux hodisasi sababli yuzaga keladigan depressiyaning asoslab berilganligi, autbriding, ya'ni genetik uzoq shakllarni duragaylashdagi genetik qonuniyatlar talabalarga tushunarli qilib asoslangan. Bundan tashqari, geterozis va uning turlari, geterozis duragaylarni olish usullari, jumladan sitoplazmatik erxak sterillakdan foydalanish imkoniyatlari to'liq yoritib berilgan. Geterozis duragaylarini yaratish orqali qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini 35-40% oshirish mumkinligini asoslab berilganligi ma'ruzaning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi deb hisoblayman.

Ma'ruza darsini o'tishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda ochiq ma'ruza darsining metodik jihatdan yozilishi, mazmuni, hajmi, adabiyotlardan hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bugungi kunning talablariga javob beradi. Ma'ruza darsi materialini qoniqarli deb baholayman.

ToshDAU "O'simlikshunoslik, meva-sabzavotchilik"

kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

S.T. Sanaev



ToshDAU Samarqand filiali "O'simlikshunoslik, meva-sabzavotchilik" kafedrası professori Bobomirzayev Pirnazar Xursandovichning "Genetika" fanidan "Inbriding va geterozis" nomli ma'ruzasi bo'yicha tayyorlangan ma'ruza tarqatma materialiga

TAKRIZ

Professor P.X.Bobomirzayevning "Agrotexnologiya" fakulteti I-bosqich talabalariga "Genetika" fanidan ochiq ma'ruza dars o'tish uchun "Inbriding va geterozis" mavzusi bo'yicha tayyorlangan ma'ruza taqdimotida mavzuning nomi, rejasi, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati, muhokama uchun savollar va pedagogik texnologiya keltirilgan bo'lib talabalarning bu sohadagi yetarli bilimlarni olish imkonini beradi. Taqdimot materiallarida tur ichida duragaylashni oson amalga oshirish mumkinligi, ya'ni genetik jihatdan bir-biriga yaqin shakllarni duragaylashda insux hodisasi sababli o'simliklar mahsuldorlik ko'rsatgichlarining pasayishi genetik jihatdan asoslab berilgan. Bundan tashqari, autbriding, ya'ni genetik uzoq shakllarni duragaylashning afzalliklari va imkoniyatlari talabalarga tushunarli qilib asoslangan. Ma'ruzada geterozis to'g'risida, uning reproduktiv, somatik, adaptiv turlari, bunday duragaylarni yaratish usullari to'g'risidaga ma'lumotlar yoritilgan. Hozirgi paytda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida sitoplazmatik erkak sterillikdan foydalanish asosida geterozis duragaylarini olish, geterozis samarasini duragaylarning keyingi bug'inlarida ham saqlash imkoniyatlari keltirilgan.

Taqdimotda ma'ruza mashg'ulotini o'tkazishda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish rejalashtirilgan.

Ma'ruza taqdimoti metodik jihatdan to'g'ri tayyorlangan, mazmuni, hajmi, tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanishi hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanilgani uchun zamonaviy talablariga to'la javob berganligi uchun uni qoniqarli deb hisoblaymiz.

"O'simlikshunoslik va yem-xashak ishlab chiqarish" kafedrası mudiri, gishu... doktor, professor



N.X.Xalilov